



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



ma'naviyat haqida chuqur bilim berishlari zarur. Ushbu janrlarni o'rganish nafaqat o'quvchilarning dunyoqarashini boyitadi, balki ularni mustahkam iymon-e'tiqodga, halollik va mehr-oqibatga asoslangan yetuk shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Alisher Navoiy ijodidagi ruboiy va qit'alarni chuqur o'rganish va o'rgatish bugungi yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Bu asarlar adabiy-estetik didni shakllantiradi, ruhiy olamni boyitadi, qalbgga ezgulik urug'ini qadab, ma'naviy barkamollikka yo'l ochadi.

Adabiyot:

1. Mirzayeva Z., Jalilov K. 6-sinf Adabiyot. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 220 b.
2. Mirzayeva Z., Jalilov K. 7-sinf Adabiyot. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 221 b.
3. Mirzayeva Z., Jalilov K. "Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi: o'qitish metodikasi (metodik qo'llanma)". – Toshkent 2020. – 139 b.
4. Mirzayeva Z., Jalilov K. "Adabiyot o'qitish metodikasi" (an'anaviylikdan zamonaviylikka) uslubiy qo'llanma. – Toshkent 2020. – 170 b.
5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi birinchi kitob. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 398 b.
6. Йўлдошев Қ. Жилowlанмаган тафаккур маҳсули. Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2023. 474 б.
7. www.ziyonet.uz
8. www.ziyo.uz.com

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/RBVT5358

O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA YANGILANISH EHTIYOJI

Gulnoza Juraeva Axmatovna

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori*

Annotatsiya: Bolalar adabiyotida mavzu va uslubning zamon talablariga mos ravishda yangilanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Inson faoliyati va turmush tarzidagi o'zgarishlar adabiyotga ham ta'sir ko'rsatib, uning shakl va mazmunini o'zgartirishga undaydi. Zamonaviy bolalar she'riyatida an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtirish, raqamli texnologiyalar bilan bog'liq motivlarni aks ettirish lozim. Xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot an'analari ham saqlangan holda, bolalar uchun qiziqarli, o'qishga arzigulik asarlar yaratish muhim. Ushbu maqola bolalar adabiyotining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilib, yangi yo'nalishlarni tavsiya etadi.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, zamonaviylik, an'ana, innovatsiya, xalq og'zaki ijodi, texnologiya, she'riyat, tasavvuf, fantastika, tarbiya.

Аннотация: Обновление тематики и стиля детской литературы в соответствии с требованиями времени имеет важное значение. Изменения в деятельности и образе жизни человека влияют на литературу, побуждая её трансформировать форму и содержание. В современной детской поэзии необходимо сочетать традиционные и инновационные подходы, отражать мотивы, связанные с цифровыми технологиями.



При этом важно сохранить элементы народного устного творчества и классической литературы, создавая интересные и достойные произведения для детей. В данной статье анализируются тенденции развития детской литературы и предлагаются новые направления.

Ключевые слова: детская литература, современность, традиция, инновации, народное творчество, технологии, поэзия, суфизм, фантастика, воспитание.

Annotation: The renewal of themes and styles in children's literature in accordance with contemporary demands is of great importance. Changes in human activities and lifestyles influence literature, prompting it to transform its form and content. Modern children's poetry should integrate traditional and innovative approaches while incorporating motifs related to digital technologies. At the same time, it is essential to preserve elements of folk oral tradition and classical literature, creating engaging and valuable works for children. This article analyzes the trends in children's literature development and suggests new directions.

Keywords: children's literature, modernity, tradition, innovation, folklore, technology, poetry, Sufism, fantasy, education.

Yangilanish ehtiyoji inson ulg'ayishi, uning faoliyati rivojlanishi, hayot tarzidagi evrilishlar bilan bog'liq. Qadim zamonlardan buyon insonning go'zallikka ehtiyoji mavjud. Adabiyot ham mazkur ehtiyoj sabab vujudga kelgandir, balki. Bugungi kunda bashariyat turmush tarzi, ish faoliyati, o'y-kechinmalari, fikrlashi tubdan o'zgardi. Bunga, albatta ichki ta'sirlar bilan birga tashqi omillar ham sabab bo'ldi. Inson ko'nglidagi kechinmalar o'zgarishi bilan birga uning atrofida bo'layotgan o'zgarishlar ham yangilanish, boshqacha aytganda, zamonaviylashish ehtiyojini vujudga keltirdi. Bunda zamonaviylashish ehtiyoji zamon talablari bilan birga harakatlanishni anglatadiki, bu jarayonda ko'zga tashlanadigan eng birinchi tushuncha texnika-texnologiya tushunchasidir. Texnika, texnologiyaga nisbatan insonning moslashishini tabiiy tushunish mumkin, lekin adabiyot bu yangilanishni o'zida qanday aks ettirishi kerak degan savolga javob qanday?

Hozirgi kunda har bir bolaning qo'lida gadjet, bo'lmadi deganda ham ular smartfonlar, kompyuterlardan qanday foydalanishni yaxshi bilishadi. Bugun adabiyot, badiiy kitoblar bolalarning qo'lidagi texnika o'rnini egallashi uchun ana shu o'zgarishlarni o'zida namoyon etishi kerak bo'ladi. Bu adabiyot butunlay zamonaviylikka xizmat qilib qolishi kerak degani emas, albatta. Shunday bir "adabiy muros" yo'lini tanlash kerakki, unda zamonaviylik bilan an'ana qorishib ketishi kerak. Bolalar bugun badiiy adabiyotni rad etmagan holda qo'llaridagi smartfonlardan foydalanishlari kerak. Buning uchun ular o'qiydigan asar chindan ham o'ziga tortuvchi bo'lishi talab etiladi. Ana shunday she'rlar, asarlar bugungi adabiyotimiz namunalarida uchramaydi deya olmaymiz. Ular orqali bolalar o'zlari mukkasidan ketgan texnika olamining yangiliklarini kashf etishlari mumkin bo'ladi. Masalan, Xudoyberdi Komilovning "Zamonaviy sholg'om ertagi" she'ri aynan shunday xarakterda:

Bobom boshladi

Chiqazolmadi.

Buvim ishladi

Chiqazolmadi.



Shu tariqa she'rda bolakayning dadasi, oyisi, opasi, akasi kirishib, tirishib chiqazolmagani aytiladi. Nimani, sholg'omnimi? Yo'q, yechim oxirda ma'lum bo'ladi:

*Masala og'ir,
O'rindi qancha.
Kompyuterda oxir
Yechdi sichqoncha.*

Mashhur "Sholg'om" ertagida ham eng oxirida sichqon kelib yordam berganda, sholg'om yerdan chiqadi. Xuddi shu holatni shoir masala yechish holatiga ko'chirib, oxiri bunda ham sichqoncha, ya'ni kompyuterning "sichqoncha"si orqali ish hal bo'lganini aytar ekan, bu g'alati o'xshashlik – shoirning kashfiyotidan o'quvchi ham og'ir masalani yechgan boladay yengil tortib, xursand bo'lsa ajab emas. She'r an'analarning zamonaviylik bilan go'zal uyg'unligini chizib beradi.

Shu o'rinda aytish kerakki, ayniqsa, bolalar adabiyotida, she'riyatda ana shunday kashfiyotchilik, yangicha nazar bilan ohorli, original fikrlar aytib, go'zal tasvirlar yaratib, yosh kitobxonda hayrat va zavq hissini uyg'otish, estetik didini tarbiyalash mumkin (1, 25).

Bundan tashqari, mazkur she'r asosida aynan xalq og'zaki ijodi namunasi hisoblangan "Sholg'om" ertagi yotgani asarning yutug'idir. Zamonaviylik an'anaviylik bilan uyg'unlikda ekanida katta ahamiyat kasb etadi. Ya'ni texnika yutuqlari adabiyotda an'analarni rad etmagan holda yuzaga kelishi maqsadga muvofiq. Har qanday badiiy asarning poydevorida milliylik va an'ananing mavjudligi uning hayotiylikini ham ta'minlab beradi. Albatta, mazkur she'r yaratilganiga ham ancha bo'ldi. Bugungi yaratilayotgan asarlar orasida shunga o'xshashlari kam topiladi. O'xshashlik deganda aynan takrorlarni nazarda tutilmayotir, albatta. Bu asarlar bugungi bolalar qo'lidagi gadjetlarning shunday tomonlarini ochib berishi kerakki, bolalar qo'lidan texnologiyalar tushmay kelayotgan bo'lsa, asarda aks etgan xususiyatlar bolalarning tillarida tushmay qolishi kerak. Umuman olganda, ular kashfiyotlarning kashfiyotlari – so'z kashfiyotlari bo'lib xizmat qilishi kerak. Ana shunday asarlar bolalar adabiyoti uchun juda zarur. Qachonki, bolalar qiziqayotgan, ularning hayotida mavjud narsalar she'rda jonlansa, ular bolalar qalbida ham jonlanadi. Bugun bolalar uchun to'ptosh, berkinmachoq kabi o'yinlar bir qadar zerikarli. Ular bugun katta yoshli insonlar uchun shirin xotiralar bo'lib xizmat qilishi, bolalikni eslatishi mumkin. Bu o'yinlarning bugungi bolalar o'ynaydigan o'yinlar bilan o'xshashligini topish esa muallif ijodiy quvvatiga bog'liq masala bo'lib qoladi.

Hozir bolalar she'riyatida ana shunday mazmun kasb etuvchi she'rlar ko'p bo'lishi, o'zlikni anglash, komil inson bo'lishga intilish g'oyalari tarannumiga shunchalik ehtiyoj kattaki, uning o'rnini bugun to'ldira olsak, bu bizning katta yutug'imiz, agar to'ldira olmasak, bu keyinchalik yana ham kattalashib, bolalar uchun yaratilayotgan asarlar saviyasi yanada tushib ketishiga sabab bo'lishi ham mumkin. Balki bu harakatlarni bugun Navoiy, Rumi ijod namunalarini bolalarga tushunarli tarzda, nasriy tarzda ishlab chiqishdan ham boshlash o'rinli bo'lar.



Ularning hikmatlarida uchraydigan go'zal xulosalarni she'riy shaklga solib bolalarga yetkazib berish ham ancha samarali.

Mumtoz adabiyot bilan bir qatorda tasavvuf g'oyalarini ham aytib o'tish kerak. Aslida, bu ikkisi bir-biridan butkul ayro tushunchalar emas, ular bir-birini tinimsiz to'ldirib boradi. Shunday ekan, bolalar adabiyotida bu ikki mavzuni ajratmagan holda, kichkintoylarga berish muhim hisoblanadi. Bolalarga murakkab tushunchalarni berishda qo'rqmaslik, bu yo'lda shakliy plani soddallashtirish orqali mazmunga yuk berish kerak. Ya'ni bolalar oson yod olishlari uchun she'r shaklini soddallashtirib, uning ma'nosini ulg'aytirish talab etiladi.

Bugun asarlarda texnika taraqqiyoti aks etishi kerak degan masalani o'rta tashlar ekanmiz, shu bilan bir qatorda, xalq og'zaki ijodi an'analari ham asarlarda jonlanishini barobar olib borish lozim. Zero, xalq dostonlari nafaqat adabiyotimizning, balki milliyligimizning ajralmas qismi. Qolaversa, bolalar adabiyoti o'zining bir qancha xususiyatlari bilan folklorga yaqin turadi. Masalan, shakl jihatdan qisqa misralardan iborat bo'lishi, ohangning o'ynoqi, ravon, kuychanligi. Bugun xalq og'zaki ijodi namunalari yosh avlod uchun uzoq o'tmish bo'lib qolishi kerak emas, balki uni badiiy asarlar misolida ko'rib, hayotga tatbiq qilishni ham o'rganishi kerak. Xalq og'zaki ijodi namunalaridagi xalqimizning ezgu orzu-istaklari, ular nimalarga talpingani, qanday qahramonlarni gavdalantirgani bugungi kun bolalariga ham qiziq bo'lishi, ular orzu qilgan ne'matlar bugun yoshlarda, bolalarda tayyor ekanini ko'rishlari ularda shukrona tuyg'usini shakllantiradi. Qolaversa, xalqimiz qadim zamonlarda tasavvurda jonlantirgan xalq qahramonlari bugun zamonamizda uchrayotgani, xalqimizning azaliy intilishlari, cho'qqi deb bilganlarini bugun zamonamiz qahramonlari amalga oshirayotgani ularning qalbiga ham faxr-iftixor tuyg'ularini joylashi aniq. Qolaversa, xalq og'zaki ijodi namunalari boyitib turuvchi tasviriy vositalar, mubolag'a, saj' kabilardan bugun bolalar adabiyotida yaratilayotgan asarlarda foydalanish lozimki, ular asarlarga xalqchilik baxsh etishi aniq. Albatta, bu yo'nalishda bitilgan asarlar ham bugungacha yaratilgan asarlar ichida ko'plab topiladi. Masalan, Anvar Obidjonning "Meshpolvon jangga otlandi" doston-qissasi yozuvchi o'zi aytganidek, o'zbekning dono baxshilariga shogird tushib, ushbu dostonga qo'l" (5, 4) urgani ham so'zlarimiz isboti bo'la oladi. Asardagi xalq og'zaki ijodi ohanglari, qo'llangan badiiy tasvir vositalari bolalar uchun o'ta qiziqarli, Meshpolvon esa bolalarni ham o'zi bilan olishlarga olib ketaveradi. Uning sarguzashtlari, tashqi ko'rinishi, asardagi voqealar zanjiri barchasi bolalar uchun qiziqarli, ba'zan shiddatkor, ba'zan g'amnokliklari bilan o'quvchining qalbidan chuqur joy egallovchi asarlar sirasiga kirdi. Yozuvchining o'zi yozganidek, o'sha omadli Meshpolvon kelajakda o'z ishlari afsonaga aylanib, nomi tarixda qolishini hali bilmagan chog'laridayoq, tashqi qiyofasi bilan boshqalardan yaqqol ajralib turarkan: ikki lunji nog'ora, jag'ida eshak tepkisi naqlagan chandiq, qorni naq qirq pudlik sandiq, burni mushuknikidek puchuq, yelkasi baayni hurpaygan chumchuq, bo'yni oldinga enkaygan, quloqlari dinkaygan, oyoq bosishi ilang-bilang, boshi Yozyovon cho'ldek yap-yalang,



ko'inishidan kamgap-u anqov, aslida mahmadona-yu mijg'ov, ko'zlari boyqushnikidek ola... xullas, rosayam qiziq bola ekan (5, 4).

Mana shunday tasviri go'zal, an'anadan oziqlangan asarlar bugungi kun bolalari uchun ham qiziq bo'lishi aniq. Bundan tashqari, bolalar uchun yaratiladigan asarlar safiga kiruvchi janrlar orasida ertak-dostonlar ham uchraydi. Ulardagi xususiyatlarning xalq dostonlari bilan o'xshashliklaridan mazmunda ham unumli foydalanish imkoniyati mavjud.

Bundan tashqari, bugungi kunda bolalar she'riyati, bolalar adabiyotida fantastik asarlarga ham tashnalik ruhi sezilmoqda. Albatta, bu to'g'ri ma'nodagi tashnalik hissi bo'lib, bola kitobxonlar hozir fantastik asarlarning go'zal namunalari bolalar adabiyotida ham yaratilishiga ishtiyoqmand bo'lib turibdilar. Bolalarning xayolparast bo'lishlari, ular orzularga berilib turli o'ylar girdobida yashashlari sabab ular tabiatan fantastikdirlar. Bolalar she'riyatida aksariyat tush motivi bilan bog'liq she'riy asarlar fantastik hisoblanadi. Chunki ularda bolalar tushlarida turli sayyoralar bo'ylab sayohatga o'tlanadilar, turli olamshumul sarguzashtlarni boshdan kechirib, goh qahramonga aylanadilar. Ammo bularning bari ro'yo ekani asar yakunida ayon bo'ladi-qo'yadi. Bugun mittivoylar boshdan-oxir sarguzashtga yo'g'rilgan asarlarni o'qishni istaydilar. Ular yakunda oddiygina tush bo'lib chiqishi kerak emas, balki davomli bo'lishi talab etiladi.

Qolaversa, ijod namunalari bolalar uchun yaratilar ekan, ularni ta'lim-tarbiyaga chorlashi ham kerak. Didaktik xarakterda yaratilgan asarlar ko'plab topiladi, lekin ma'rifiy xususiyatga ega asarlarni ham ko'paytirish va bu yo'lda jadid bolalarimiz an'analarga suyanish mumkin. Bugungi didaktik qahramonlar bir vaqtning o'zida ilmli-tarbiyali, qolaversa, o'tmish an'analari bilan bir qatorda zamon yangiliklaridan yaxshi xabardor bo'lishi kerak. Ana shunda ular kichkintoylar uchun munosib o'rnak bo'la oladilar.

Umumiy xulosa qilganda, o'zbek bolalar she'riyatida, adabiyotida mavzu yangilanishi zaruratini adabiy ehtiyoj o'laroq qisman quyidagi mavzularda ko'rishimiz mumkin:

- yuksak texnika taraqqiyotini milliy an'analar bilan qorishiq holda aks ettirgan badiiy asarlar;
- mumtoz adabiyot g'oyalarini o'zida qisqa va bolalarga tushunarli tarzda namoyon etuvchi ijod namunalari;
- tasavvufiy mazmun kasb etuvchi she'rlar, hikoyalar;
- xalq og'zaki ijodi namunalari oziqlangan va ularning ohangida yaratilgan asarlar;
- fantastik asarlar va boshqalar.

Shu va boshqa shu kabi mazmundagi asarlar bolalar uchun yaratilar ekan, bolalar "iste'moli"ga yaroqli asarlar yuzaga keladi. Ehtiyoj ijobiy ma'noda qondiriladi. Mohiyat ham bir vaqtning o'zida ham teranlashib, ham kengayib boradi. Ularni bolalarga tutish va undan keyin ulardan buyuk kelajak hadya qilishlarini kutish har tomonlama maqsadga muvofiq hisoblanadi.



O'zbek bolalar she'riyatidagi mavzular davrlar mobaynida zamon talablari bilan o'zgarib borgan. "Hayrat ul-abror" dostoniga kiritilgan hikoyatlarning ayrimlarini bolalar uchun o'qishga tavsiya qilish mumkin. Ulardagi mazmun ko'lami esa didaktikaga aloqadorlik kasb etadi. Ular orqali bolalarni inson qanday bo'lish kerakligiga o'rgatish mumkin. Jadid adabiyoti namoyandalari ijodida esa bolalarni savodli qilishga intilish yuqoriga olib chiqilgan. Sababi, bu davr ehtiyoji, bolalarning ehtiyoji edi. Adabiyotga kirib kelgan mavzu yangilanishlari aynan mana shu ehtiyojlar negizida paydo bo'ldi. Ularni davr va inson ehtiyojlari shakllantirib berdi va uning o'zi mana shu muhtojliklarni qondira boshladi. Bolalarning yosh xususiyatlariga e'tibor qaratilganda ham ular uchun muhim bo'lgan narsa bu ta'lim va tarbiya bo'lgan. Shunday ekan, bolalar adabiyotida dastlabki davrlarda ta'lim va tarbiyaga alohida ahamiyat qaratilgan. Keyingi yillari ham bu ikki tushuncha bolalar uchun hayot davomida kerak bo'lgan unsurlar sifatida va an'analarni saqlagan holda bolalar uchun yaratilgan asarlar mazmunining katta qismini tashkil qilib keldi. Ammo insonlarning ehtiyojlari o'laroq bu mavzu o'z atrofiga yangi g'oyalar, yangi mavzularni yig'di. Shunday qilib bolalar adabiyoti mavzu ko'lami kengayib asta-sekinlik bilan yangi-yangi mazvzularni qamrab oldi. Ularda bugungi davr bolalarining qiziqishlari, intilishlari, orzulari, o'y-xayollari aks etgani asarlarni ular uchun yanada o'qishli qildi. Shu jihatdan kelib chiqib, bolalar adabiyotidagi davr yangilanishlarini zamonga xos xususiyatlar, insonlar tafakkuri, o'y-xayollaridagi evrilishlar va mana shu ehtiyojlar negizida sodir bo'lgan deb hisoblash mumkin.

Ma'rifatparvarlik davrida bolalarni ilm olishga chorlashda o'ziga xos obrazlardan foydalanilgan. Masalan, ona-bolalarning ilm olishiga sababchi bo'luvchi obraz. Qachonki millat onalari savodli, ziyoli bo'lib, o'zlari namuna ko'rsatar ekan, shundagina bolalar ilm ola boshlaydi. Onalarning namuna ko'rsatishi ham bejiz emas. Bolalar ulardan o'rnak olishlari, avval harakatlarida ilmu amal mutanosibligini ko'rishlari kerak bo'ladi. Ana shunday she'rlardan biri Muhammad Sharif So'fizodaning "O'qing, onalar" she'ri hisoblanadi:

Muncha yomon sho'rlari peshonalar,

Qizlarimiz joriyayi xonalar [8, 64].

Mana shunday o'kinch bilan boshlangan mazkur she'rda onalar va qizlarning ta'lim olishlariga katta da'vat bor. Ular bilimli bo'lsa, kelajak avlod ilm olishga qiziqadi, shundagina munosib tarbiyaga zamin yaratiladi. Jadid adabiyoti vakillari bolalarning ilmsiz bo'lishidagi asl sabablarni qidiradi. Ularning oqibatlari bilangina qiziqib qolmasdan, keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlashga va davolashga kirishadi. Demak, ularning fikricha, bolalarning ilmsizligi onalarga bog'liq. Ma'rifatparvarlik davri adabiyoti namoyandalari nishonni to'g'ri olgan holda, diqqat markazini shunga qaratganlar. Ular bir vaqtning o'zida realistik obrazlar yaratganlar, chunki o'sha qahramonlar davrning mavjud insonlari bo'lgan. Bu qahramonlarning xarakter xususiyatlari tipik, butun o'zbek onalariga tegishlidir. Keltirilgan misollarda obrazlardagi xususiyatlararo sintezlashuvni ham ko'rish mumkin. Shuningdek, So'fizodaning boshqa bir she'rida kuzatilgan gazeta obrazi millatni ilm olishga chorlashi va da'vat etishi bilan xarakterlidir.



Yuqorida onalar obrazi realistik sanalgan bo'lsa, gazeta majoziy-ramziy xarakterga ega:

*Yashnatib dil g'unchasin, fasli bahor aylar gazet,
Suv berib ko'ngil bog'ini, sabzavor aylar gazet [8, 65].*

O'tkir mubolag'a bilan yozilgan mazkur g'azalda ta'rifi keltirilgan gazetaning "dillarni yashnatishi-yu, fasli bahor aylashi" sababi uning millatga kirib kelayotgan ilm-ziyo timsoli ekanligidir. Bu esa gazeta ramzi vositasida ochib berilmoqda. Ilk marta ushbu g'azalni o'qiganda gazeta qanday qilib dillarni yashnatib yuborishi mumkin, degan savol tug'iladi. Chuqurroq yondashilganda esa uning timsol ekanligi, ma'rifat ramzi sifatida tanlangani ayonlashadi. Ilm millat yo'llarini yoritishi, qolaversa, butun boshli xalqning yangi bir olam ochishiga sabab bo'lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan shaxs va narsa-predmet obrazlari orqali ma'rifiy maqsad ko'zga tashlanmoqda.

Abdulla Avloniy aynan bolalar ta'limiga bag'ishlangan "Xurus ila bo'ri" hikoyasida jonivorlarga nutq berib, go'zal obrazlar yaratgan. Hikoyatdagi xurus yuksak aql timsoli, u bo'rining sulh haqidagi gaplariga ishonmagani va unga munosib javob qaytara olgani uchun ham mana shu maqomga ko'tarilgan. Mazkur asar didaktik-ma'rifiy xarakterda bo'lib, undagi ikki obraz orqali bolalarni odob va aql bilan turli masalalarni ijobiy hal qilishga o'rgatish mumkin. Bo'ri hiylagarlik, ayyorlik timsoli, uning yakunda pushaymon bo'lib qochib qolgani ham bolalarga bu yo'lni tanlamaslikni eslatib qo'yadi. Hikoyatga ilova qilingan she'r ham asar mazmunini boyitib, qissadan hissa shaklida keladi:

*Aql egasi hiylaga aldanmagay,
Hiylagarning hiylasi boshin yegay.
Do'st ila dushman so'zining farqi bor,
Fahm etar har kimki, o'lsa hushyor.*

Avloniy ijodiga murojaat qilishda davom etsak, uning "Advokatlik osonmi?" asaridagi Abdujabbor hajviy obraz sifatida gavdalanadi. Uning hajviyligi aslida katta fojia. Mazkur obrazda ilmni shunchaki pul orttirish vositasi deb o'ylaydigan inson fojiasi yashiringan. Ming afsuski, ushbu kulgi yozuvchi o'zi aytganidek, "Turkiston turmushidan olinub yozilmishdir". Bu shunday achchiq kulgiki, Davronbekdek ziyolilar millat muammolarini hal qilishdan toliqib turgani holda, Abdujabborlar sahnaga chiqa boshlaydi. Hajviy obraz sifatida Abdujabbor ilmsizligi, farosatsizligi bilan ham achchiq kulgi qo'zg'atadi.

Ma'rifatparvarlik davri adabiyoti namunalarida uchraydigan ma'rifiy obrazlar ikki turga bo'linadi:

- namuna sifatida ko'rsatilib, shunday bo'lishi kerak deyish mumkin bo'lgan obrazlar;
- odobni odobsizdan o'rgan qabilidagi, ko'rib turib fikr qilib, ularga o'xshamaslik zarurligiga urg'u berilgan obrazlar.

Yuqorida ismi keltirilgan Abdujabbor hajviy-ma'rifiy obrazi ikkinchi turga mansub hisoblanadi. Mazkur davr adabiyoti namunalarida uchrovchi Ziyoli, Domla, Davronbek obrazlari esa namuna sifatida ko'rsatilgan ma'rifiy obrazlar sirasiga kiradi.



Zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida obrazlar xilma-xilligi ko'zga tashlanadi. Bu davrda yaratilgan obrazlar orasida hajviy, realistik, ramziy-majoziy, afsonaviy va fantastik kabi turli obrazlarni uchratish mumkin. Ayniqsa, Xudoyberdi To'xtaboevning "Sariq devni minib" asari mavzu jihatidan ham, obrazlar xilma-xilligi bilan ham boshqalaridan alohida ajralib turadi. Nasrdagi bu o'zgarishlar she'riyatda ham asta-sekin bo'y ko'rsatadi.

Ming yillar davomida shakllangan qoliplar parchalanishi, ya'ni shakliy izlanishlarning adabiyot maydoniga chiqishiga ham insonlar tafakkuridagi yangilanishlar sabab bo'lgan, albatta. Insoniyat ong-u shuuriga taalluqli bo'lgan yangilanish ehtiyoji bolalarga ham tegishli hisoblanadi. Bolalar diqqatini jamlash, ularni jalb qilish, oson ish emas, albatta. Shakl mazmunga yetaklab boruvchi vositalardan biri hisoblanadi. Shakl bilan o'ziga jalb qilgan asar mazmunan ham bolalar uchun qiziqarli bo'ladi. Mazmunning ahamiyati, uning yetkazib berilishi va muallifning maqsadini ochib berishida shaklning o'rni beqiyos sanaladi. Yuqoridagi misollar bilan shakliy izlanishlarning ahamiyati ochib berildi. Ularning bolalar ongini, tasavvurini boyitishdagi o'rni, qolaversa, jalb qiluvchi xarakterga ega ekani misollar yordamida izohlandi. Shakliy izlanishlar haqida gapirilganda, albatta, uning adabiyotga daxldor ekani va mazmun bilan hamohangligini unutmaslik kerak. Ya'ni shakliy izlanishlar shunchaki shakl uchun xizmat qilishi kerak emas, ular tom ma'noda mazmunni tashqi boyitishga xizmat qilishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Адашбоев Т., Ражабов Д. Сатрлардан таралган меҳр. – Тошкент. "Турон замон зиё", 2017. Б. 25.
2. Ашуров Б. Т. Адашбоев шеърлари поэтикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. 2016.- 172 с.
3. Баракаев Р. XX аср бошларидаги ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. — Тошкент, 1994. – 46 с.
4. Иброҳимова З. Кичкинтойлар адабиётининг хусусиятлари. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 83с.
5. Обиджон А. Мешполвон жангга отланди. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2016. – 75с.
6. Қаҳрамонов Қ. Адабий танқид ва ўзбек болалар адабиёти. – Тошкент: Фан, 1991. – 126с.
7. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Навоий университети, 2018. – 468 с.
8. То'xliyev B., Shermurodov T., Isayeva Sh. Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning III bosqich o'quvchilari uchun darslik. – Toshkent: Bayoz, 2015.



<i>Gulnoza Juraeva Axmatovna. O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA YANGILANISH EHTIYOJI</i>	977
<i>HAYTALIYEVA NIGORA. 90-YILLAR O'ZBEK SHE'RIYATINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI</i>	985
<i>Mo'minova Shohida Toshtemir qizi. ZAMONAVIY O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA QAHRAMON OBRAZINING SHAKLLANISHI</i>	990
<i>Yulduz Mustafayeva Nortoji qizi. "SHAMOLNI TUTIB BO'LMAYDI" HIKOYASIDA QAHRAMONLAR RUHIYATI TASVIRIDA DETAL VA ISMLAR POETIKASI</i>	995
<i>Shamshimetov Timur Tashtemirovich. TALABALAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKNI OLDINI OLISHNING INNOVATSION USULLARI</i>	1002
<i>Nurmuradova Dilovar Baxodirovna. ABDURASHID NURMURODOV ROMANLARIDA URUSHNING BADIY TALQINI VA INSONIY FOJIALAR</i>	1008

